



## OGAHİY G'AZALLARI ORQALI YOSHLAR PSIXOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

**O'rozaliyeva O'lmasoy Kubay qizi**

*TDSHU 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizning yuksak vakili Ogahiy ijodidagi inson kamoloti va fazilatlari haqidagi fikrlar tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Ogahiy ijodi, emotsional intellekt, stressga chidamlilik, ruhiy salomatlik, empatiya, ijtimoiy ong,*

Bugungi davr yoshlaridan nafaqat bilimli, balki ruhiy barqaror, emotsional yetuk va axloqan komil bo'lish talab etiladi. Axborot oqimi kuchaygan, ijtimoiy bosimlar ortgan hozirgi sharoitda yoshlar psixologiyasi ko'plab muammolarga duch kelmoqda: stress, beqarorlik, maqsadsizlik, emotsional bo'shliq va ijtimoiy begonalashuv shular jumlasidandir. Shu bois yoshlar ongini shakllantirishda milliy-ma'naviy manbalarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiy ijodi, xususan uning g'azallari inson ruhiyatini nozik va chuqur tasvirlashi bilan ajralib turadi. Ogahiy g'azallari yoshlarning ichki dunyosiga ta'sir etish, ularni o'zini anglash, hissiyotlarini boshqarish va hayotiy qiyinchiliklarga to'g'ri munosabat bildirishga o'rgatishda muhim psixologik manba bo'la oladi. Ogahiy ijodi juda keng qamrovli va sermazmun hisoblanadi. Ogahiy ijodining asosiy yo'nalishlari ishq-muhabbat, inson qalbi kechinmalari, axloqiy yetuklik, adolat, hamkorlik, kamtarlik ma'nolarini mujassam etadi. Uning boy merosi tarixiy jihatdan Xiva xonligi, siyosiy voqealar, hukmdorlar faoliyati aks etganligi bilan ham juda ahamiyatli. Ogahiy ijodida "Ta'viz ul-oshiqin" devoni 18000 baytga yaqin mistralarni o'z ichiga olgan va bu devon XIX asr o'zbek adabiyotining eng sermahsul ijod namunalaridandir. Ogahiy tarjimonlik faoliyati bilan turkiyzabon insonlarga arab va fors tillaridagi yirik tarixiy, falsafiy va davlat boshqaruvi bilan bog'liq ma'lumotlarni ona tillarida o'rganish imkonini berdi. Xususan, yoshlar tarbiyasi uchun juda kata ta'sirga ega bo'lgan Kaykovusning "Qobusnoma" asarini mahorat bilan tarjima qilgani biz uchun tengsiz merosdir.

Ogahiy g'azallarida sevgi, sog'inch, hijron, umid va armon kabi emotsiyalar chuqur badiiy ifoda topgan. Bu hissiyotlar yoshlar ruhiyatiga yaqin bo'lib, ularning ichki kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Psixologiyada emotsional intellekt shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Ogahiy g'azallarini tahlil qilish orqali yoshlar: o'z emotsiyalarini tanib olishni, salbiy hissiyotlarni inkor etmasdan, ularni to'g'ri yo'naltirishni, his-tuyg'ularni badiiy idrok orqali ifodalashni o'rganadilar. Bu esa



yoshlar psixologiyasida emotsional savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi. Quyida Ogahiy ijodidan bir parchaga nazar solaylik:

Ey quyosh, yuzing ochgin, g'am tunida zoringman  
Sidq ila nafas urg'on subhi beg`uboringman.  
San jamol-u hashmatda husn mulki shohisan  
Man malol-u kulfatda bandai nazoringman.

Bu misralarda shoir quyosh obrazini nur, haqiqat va najot timsoli sifatida tasvirlab, g'am tunida unga zor bo'lish orqali insonning og'ir damlarda ham umidini uzmasligi kerakligini anglatadi. Bu holat yoshlarni hayotdagi muammolar, sinov va qiyinchiliklar qarshisida tushkunlikka tushmasdan, doimo yorug'lik va yechim izlashga o'rgatadi. Bunday ruhiy yondashuv yoshlarda ijobiy fikrlash, sabr-toqat va ichki bardoshlilikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

She'rda "sidq" va "beg'ubor tong" tushunchalari orqali samimiyat, rostgo'ylik va ma'naviy poklik ulug'lanadi. Bu jihat yoshlar tarbiyasida juda muhim bo'lib, ularni riyo, yolg'on va ikkiyuzlamachilikdan yiroq bo'lishga, qalban toza va halol yashashga da'vat etadi. Samimiyat insonning o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabatini sog'lomlashtiradi, yoshlarning shaxs sifatida yetuklashishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, ushbu misralar axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillaridan birini badiiy ifoda orqali singdiradi. Keyingi misralarda go'zallik va ulug'lik egasi oldida kamtarlik bilan bosh egish holati tasvirlanadi. Bu esa yoshlar ongida kibr va manmanlikdan yiroq bo'lish, buyuklik va fazilat oldida hurmat saqlash g'oyasini mustahkamlaydi. Inson o'z o'rnini anglab yashasa, jamiyatda sog'lom munosabatlar shakllanadi. Shoirning o'zini "malol-u kulfatda banda" deb atashi esa hayot sinovlari ichida ham sadoqat va sabrni saqlab qolish zarurligini ko'rsatadi. Bu fikr yoshlarni qiyinchiliklardan qochmaslikka, balki ularni tarbiya va kamolot manbai sifatida qabul qilishga undaydi. Ogahiy ijodida sabr va qanoat markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Shoir hayotning murakkab sinovlarini vaqtinchalik holat sifatida talqin etadi va insonni ruhiy mustahkamlikka chaqiradi. Zamonaviy psixologiyada buni stressga chidamlilik va psixologik moslashuv tushunchalari bilan izohlash mumkin.

Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay,  
Ohima hech shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.  
Hardam ulug'a lutf ila boqg'usi qahr ila, vale  
Man sori bir nazora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Ogahiy g'azallarida insonning o'z qalbi bilan muloqoti, ichki tahlili va o'zini anglash jarayoni keng yoritilgan. Psixologiyada bu jarayon men konsepsiyasi bilan bog'liq. Yoshlar bu asarlar orqali: o'z ichki dunyosini tahlil qilish, shaxsiy qadriyatlarini aniqlash, hayotiy maqsadlar haqida mushohada yuritish imkoniga ega bo'ladilar. Natijada shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati va ichki mas'uliyat hissi shakllanadi. Shuning bilan birgalikda g'azallarida vijdon, halollik, sadoqat va adolat g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. Bu g'oyalar yoshlarning axloqiy ongini rivojlantirishga xizmat



qiladi. Axloqiy ong esa shaxsning jamiyatdagi xulq-atvorini belgilovchi muhim psixologik omildir. Shoir asarlaridagi axloqiy qadriyatlar yoshlarni: noto‘g‘ri xatti-harakatlardan tiyilishga, o‘z xulqi uchun javobgarlikni his etishga, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishga undaydi.

Ogahiy g‘azallarini tahlil etarkasiz, unda insonlararo munosabatlar, mehr-oqibat va sadoqat g‘oyalari chuqur ifoda etilganining guvohi bo‘lasiz. Bu yoshlar psixologiyasida empatiya – boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga hamdard bo‘lish qobiliyatini rivojlantiradi. Empatiya rivojlangan yoshlar: ijtimoiy moslashuvda muvaffaqiyatli bo‘ladi, sog‘lom muloqot o‘rnatadi, nizolarni zo‘ravonliksiz hal qilishga moyil bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy g‘azallari yoshlar psixologiyasini shakllantirishda kuchli tarbiyaviy va psixologik salohiyatga ega. Shoir ijodidagi emotsional chuqurlik, axloqiy yetuklik va ruhiy barqarorlik g‘oyalari yoshlarni hayotga ongli, sabrli va mas‘uliyatli munosabatda bo‘lishga undaydi. Shu sababli Ogahiy g‘azallarini ta‘lim jarayoniga psixologik yondashuv asosida tatbiq etish yosh avlodni ma‘naviy va ruhiy jihatdan kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ogahiy ijodida inson kamoloti markaziy o‘rinda turadi. Uning she‘rlari va tarjima asarlarida sabr, qanoat, halollik, vafodorlik, adolat va mas‘uliyat kabi fazilatlar targ‘ib etiladi. Shoir ishq mavzusini faqat hissiy holat sifatida emas, balki insonni poklanish va o‘zini anglash sari yetaklovchi kuch sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv yoshlarni yengil hissiyotlarga berilmasdan, chuqur fikrlashga, o‘z ichki dunyosini tahlil qilishga o‘rgatadi. Natijada ularda emotsional barqarorlik va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Ogahiy tarjima qilgan axloqiy va pand-nasihati asarlar esa yoshlar ongida to‘g‘ri hayotiy yo‘l tanlash, ustozga hurmat, ota-onaga sadoqat, jamiyat oldidagi burchni anglash kabi tushunchalarni mustahkamlaydi. Bu asarlar orqali yoshlar nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy mas‘uliyat va fuqarolik ongini ham shakllantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev, Q. (2018). Badiiy adabiyot va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Akademnashr.
2. Kaykovus. (1997). Qobusnoma (Ogahiy tarjimasi). Toshkent: Ma‘naviyat.
3. Karimov, N. (2004). XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Ogahiy. (1971). Ta‘viz ul-oshiqin. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Rahmonov, V. (2015). Mumtoz adabiyot va shaxs tarbiyasi. Toshkent: Ma‘naviyat.